

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

GAFUROVA NOZIMA IKRAMOVNA

**O‘ZBEK, INGLIZ VA RUS TILLARIDA
«QURILISH» SOHASI TERMINLARI TARJIMASI MASALASI
(BINO TA’MIRI YO‘NALISHI ASOSIDA)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2024

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Philological Sciences**

Gafurova Nozima Ikramovna

О‘zbek, ingliz va rus tillarida «qurilish» sohasi terminlari tarjimasini masalasi
(bino ta‘miri yo‘nalishi asosida) 3

Гафурова Нозима Икратовна

Проблемы перевода терминов сферы «строительства» в узбекском,
английском и русском языках (на основе ремонтных работ зданий) 25

Gafurova Nozima Ikramovna

The problem of “construction” field terms translation in Uzbek, English and
Russian languages (based on building renovation) 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 53

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

GAFUROVA NOZIMA IKRAMOVNA

**O‘ZBEK, INGLIZ VA RUS TILLARIDA
«QURILISH» SOHASI TERMINLARI TARJIMASI MASALASI
(BINO TA’MIRI YO‘NALISHI ASOSIDA)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasida B2023.1.PhD/Fil3477 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg‘ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Andijon davlat chet tillari insituti veb-sahifasining (www.adchti.uz) hamda “Ziyonet” axborot-ta’lim portalining (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xoshimova Nargis Abdullayevna
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent

Rasmiy opponentlar:

Hoshimova Dildora Madaminovna
filologiya fanlari doktori, professor

Saidxonov Ma‘murjon Muhammedovich
filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qo‘qon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “____” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 170100, Andijon shahri, Bobur shohko‘chasi, 5-uy. Tel: 0(374) 223 42 76; faks: 0(374) 223 42 76; e-mail: info@asifl.uz.).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat chet tillari institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon shahri, Bobur shohko‘chasi, 5-uy. Tel: 0 (374) 223 42 76).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “____” _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil “____” _____ da _____ - raqamli reyestr bayonnomasi).

D.A.Rustamov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
raisi, f.f.d., professor

A.Dj.Atoboyev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
kotibi, f.f.d (PhD)

M.I.Umarxodjayev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
f.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida terminlar ikki xil nuqtayi nazardan tadqiq etiladi: birinchidan, tilshunoslik tarmoqlaridan biri bo'lgan terminshunoslikning obykti bo'lsa, ikkinchidan, ma'lum bir fan, soha, kasb-hunar doirasidagi masala sifatida alohida yechimlarni talab etadi. Bugungi kunda ilm-fan, madaniyat, ishlab chiqarishda ro'y berayotgan o'zgarishlar terminlar xususiyatiga ham katta ta'sir etmoqda. Terminlar o'zgaruvchan hodisalar qatoriga kiritilib, dunyo tilshunosligida ularning dinamik strukturasi keng tadqiq qilinmoqda. Shu bois lug'atlar tarkibidagi terminlar doimo o'zgaruvchan birlik sifatida izohlanadi. Qolaversa, termin umumiy til, ma'lum bir soha tili va ilm-fan doirasida aniq tushuncha va kategoriyalarini anglatuvchi maxsus nomlar sifatida muntazam o'rganib borishni talab etadi. Innovatsiyalar kuchaygan bugungi zamonda ularning tadqiqi yana-da dolzarblik kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida terminologiyaning tarjima masalasi aksariyat tarjimashunos va tilshunos olimlarning ilmiy ishlarida ko'zga tashlanadi. Terminologiya tarjimasi masalasi rus va Yevropa tilshunosligi hamda tarjimashunosligida dolzarb masala hisoblanadi, tarjima usullari esa bir-biridan ajralib turadi. Qolaversa, texnologik inqilob yuz berayotgan zamonaviy dunyoda barcha sohalarni kompyuterlashtirish va raqamlashtirish, shubhasiz, eng so'nggi innovatsion ilmiy yo'nalishlar va bilim sohalarining kashf etilishiga asoslangan. Shu jumladan, qurilish sohasidagi bilimlarni xalqaro ilmiy aloqalar yordamida integratsiyalash va differensiyalash muammolari hozirgi kunda nafaqat arxitektura va bino ta'miri yo'nalishi, balki tilshunoslik uchun ham dolzarb hisoblanadi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning so'nggi davrida turli sohalar, ayniqsa texnika va qurilish sohalari shiddat bilan rivojlanib bormoqda. O'z navbatida, xalqaro madaniy aloqalar tufayli har bir davlat qurilish sanoatining maxsus leksikasini o'rganishga ham ehtiyoj tug'ildi, uni mahalliy nomlar bilan qiyoslab, yaxlit bir ko'rsatmalar holiga keltirish zamonaviy terminologiya ilmining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunonchi, "Bugungi globallashtirish davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada avvalo o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir"¹. Shu nuqtayi nazardan, aksariyat chet eldan kirib kelayotgan qurilish materiallari, buyum va asboblarining nomlariga e'tibor berish, imkon darajasida o'zbek tili so'zlaridan foydalanish, terminologik tizimni sof o'zbek terminlar bilan boyitish, ingliz va rus tillaridan kirib kelgan terminlarga muvofiq ekvivalentlarini topish, o'zbek tili lug'atini soflashtirish kabi masalalar tilshunoslar tomonidan yechimini kutib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasini Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi «Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni yanada takomillashtirish to'g'risida»gi PF-4958-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-son Farmoni. Manba: <http://lex.uz/docs/4561730>

to‘g‘risida»gi PQ-2909-sonli qarori, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2023-yil 20-apreldagi PQ-128-sonli “Ilmiy-metodik va tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta‘lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qonuni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Terminshunoslikka oid dastlabki tadqiqotlar XX asrning 50-yillarida faoliyat ko‘rsatgan avstriyalik olim Evgen Vyuster² va rus tilshunosi Dmitriy Semenovich Lotte³ nomlari bilan bog‘liq. Hozirgi vaqtga kelib esa, avstriya-nemis, fransuz-Kanada, rus, chex kabi bir qator milliy terminshunoslik maktablari mavjud bo‘lib, ularning tadqiqotlari terminologiyaning nazariy muammolariga bag‘ishlangan. Maktablar maxsus leksikani o‘rganishga bo‘lgan yondashuvlari, aspektlari bilan farqlanadi. E.Vyusterdan tashqari L.Xoffman, P.Faber, V.Evans, J.Duley kabi g‘arb va ingliz tilshunos va lug‘atshunoslari ishlarida, K.Y.Averbux, L.M.Alekseyev, S.G.Barxudarov, S.N.Vinogradov, G.O.Vinokur, B.N.Golovin, S.V.Grinev, V.P.Danilenko, R.Y.Kobrin, Z.I.Komarova, N.Z.Kotelova, V.M.Leychik, A.V.Lemov, D.S.Lotte, A.A.Reformatskiy, A.V.Superanskaya, B.A.Tatarinov, N.M.Shanskiy, L.V.Sher⁴ kabi rus tilshunoslari monografiyalarida atroflicha o‘rganilgan.

² Вюстер Э. Введение в общую терминологию и терминологическую лексикографию. – Нью-Йорк, 1999. ([Introduction to general terminology and terminological lexicography]. – New York, 1999.

³Лотте Д.С. Основы построение научно-технической терминологии: Вопросы теории и методики. – М.: Изд-во АН СССР, 1971.

⁴ Hoffmann L. Seven Roads to LSP Fachsprache. No. 6/1-2. 1984 – P. 28–38; Faber, P. Framing Terminology: A Process-Oriented Approach[Electronicresource] / P.Faber, C.M. Linares, M.V. Expósito//Meta:Translators’ Journal. –Vol.50. №4. –2005. L: <http://id.erudit.org/revue/meta/2005/v50/n4/019916ar.pdf>; Авербух К.Я. Общая теория термина / К.Я. Авербух. – Иваново, 2004; Алексеев Л. Проблемы термина и терминообразования. – Пермь: Перм. гос. ун-та, 1998; Бархударов С. Г. Большой орфографический словарь русского языка. – М.: Мир и образование: ОНИКС, 2007; Виноградов, С.Н. Термин как средство и объект описания: (на материале русской лингвистической терминологии) / С.Н. Виноградов. – Н. Новгород: Изд-во Нижегород. ун-та, 2005; Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии // Труды Московского института истории, философии и литературы. – М.: ЛИТЕРА, 1939. Т. 5. Сборник статей по языковедению. – С. 3–54; Головин Б. «Лингвистика текста» и «лингвистика речи»? / Б. Н. Головин // Термины в языке и речи: межвуз. сб. – Горький: ГГУ, 1984. – С.3–9; Гринёв С.В. Введение в терминоведение / С.В. Гринев. – М.: Московский лицей, 1993; Даниленко.В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания / В.П.Даниленко. – М.: Наука, 1977; Кобрин Р. Ю. Лингвостатистический анализ употребления терминов нормативных словарей и ГОСТов в реальных научно-технических текстах / Р.Ю. Кобрин Л.А. Пекарская // Языковая норма и статистика. – М., 1977. – С. 265-277; Комарова, З.И.

Hozirga kelib o‘zbek tilshunosligida tadqiqotlar ko‘lami kengayib, terminlar tahliliga bag‘ishlangan ilmiy ishlar soni tobora oshib bormoqda. Jumladan, M.Aliyeva⁵ gazlamachilik terminlari, F.Qosimova⁶ tibbiyot terminlariga o‘z ilmiy ishlarini bag‘ishlagan.

Xususan, qurilish terminologiyasi dolzarb masala sifatida rus tilshunosligida XX asrning 70-yillarida tadqiqot markaziga aylangan. S.V.Grinyov, A.S.Grinyov, R.Y.Kobrin, Y.I.Golovin⁷ kabi tadqiqotchilar qurilish va arxitektura terminologiyasining etimologik jihatlariga e‘tiborini qaratgan. M.Bekmurodov, N.V.Vasilyevalar⁸ qurilish terminlarining semantik-struktur jihatlarini tahlil qilgan. A.V.Superanskaya, A.Abduraxmanovalarning⁹ dissertatsiyalarida qurilish terminlari kognitiv jihatdan ko‘rib chiqilgan.

O‘zbek tilshunosligida qurilish terminologiyasi K.Sapayev ishlarida tahlil qilingan¹⁰. Biroq, qurilish terminlarining ingliz, rus va o‘zbek tillari asosida qiyosiy tadqiq etish, tarjima jarayonida vujudga kelgan masalalarni tahlil qilish masalalari ilk marotaba monografik asosda tadqiq qilinmoqda.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Farg‘ona davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «Tilshunoslikning dolzarb masalalari» yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz, rus va o‘zbek tillarida qurilish sohasiga oid terminlarning semantik-struktur tahlilini amalga oshirish va tarjima masalalarini ochib berishdan iborat.

Семантические проблемы русской отраслевой терминологии: автореф. дис. ... докт. филол. наук: 10.02.01/З.И. Комарова. – Екатеринбург, 1991; Лейчик В.М. Терминоведение: предмет, методы, структура / В.М. Лейчик. – М.: Изд-во ЛКИ, 2007; Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии: вопросы теории и методики. – М.: Изд-во АН СССР, 1961; Суперанская А.В. Общая терминология: Вопросы теории / А.В. Суперанская, Н.В. Подольская, Н.В. Васильева; отв. ред. Т.Л. Канделаки. – Изд. 3-е, стер. – М.: Едиториал УРСС, 2004; Татаринев В.А. Общее терминоведение: энциклопедический словарь / Российское терминологическое общество «РоссТерм». – М.: Московский лицей, 2006; Реформатский А. Мысли о терминологии / Современные проблемы русской терминологии: сб. науч. ст. – М.: Наука, 1986.– С.163–198; Лэйчик В.М. Когнитивное терминоведение – пятый этап развития терминоведения как ведущей научной дисциплины рубежа XX–XXI веков. – М.: Рязань, 2007. – Вып. 5. – С.121–132.

⁵ Алиева М. Миллий газлама дизайнерлиги терминларда синтагматик муносабат. Фил. фанлари бўйича ф. д. автореферати. – Toshkent, 2018. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6161293>.

⁶Qosimova F. O‘zbek-ingliz tibbiy terminlari lingvomadaniy birlik sifatida («homiladorlik» semali birliklar misolida)// Ucheniy XXI veka, 2022, № 2 (83). – В. 25–27.

⁷ Гринёв С.В. Введение в терминоведение / С.В. Гринев. – М.: Московский лицей, 1993; Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии: вопросы теории и методики. – М.: Изд-во АН СССР, 1961; Гринев А.С. Сопоставительный анализ английской и русской архитектурной терминологии: на материале тематического поля “Теория и история архитектуры”: дисс. канд. филол. наук: 10.02.20 / А.С.Гринев. – М., 2004; Кобрин Р.Ю. Лингвостатистический анализ употребления терминов нормативных словарей и ГОСТов в реальных научно-технических текстах / Р.Ю. Кобрин, Л.А. Пекарская // Языковая норма и статистика. – М., 1977; Головин Б.Н, Кобрин Р.Ю. Лингвистические основы учения о терминах: Учеб. пособие для филол. спец. вузов. – М.: Высш. шк., 1987.

⁸ Бекмurodov М. Лексико-семантический и структурный анализ строительной терминологии: На материале таджикского и английского языков. Дисс. на соискание степ. канд. фил. наук., 2020; Васильева Н.В. О координировании ономастической терминологии/Н.В.Васильева // Вестник Нижегородского ун-та им. Н.И.Лобачевского, 2014. – № 2(1). – С. 373–377.

⁹Абдурахманова А.З. Лингвистическое моделирование строительной терминологии (на материале английского языка) / Дисс. на соиск. уч. степ. канд. филол. наук. – Москва, 2016; Суперанская А.В. Общая терминология: Вопросы теории / А.В. Суперанская, Н.В. Подольская, Н.В.Васильева; отв. ред. Т.Л.Канделаки. – Изд. 3-е, стер. – М.: Едиториал УРСС, 2004.

¹⁰ Сапаев К. Строительная терминология узбекского языка: Дисс. на соиск. уч. степ. канд. филол. наук. – Ташкент, 1984.

Tadqiqotning vazifalari:

terminlar shakllanishining xususiyatlari, modellarini aniqlash va tavsiflash; termin va terminologiyaning umumiy xususiyatlarini ifodalash, til tizimida terminologiyaning o'rnini va ahamiyatini ochib berish;

hozirgi davr terminshunosligida terminlar dinamikasidan kelib chiqib, qurilish sohasi terminlarining komponentlari tahlilini amalga oshirish hamda ularning turli tizimli tillarda nisbatini aniqlash;

turli tizimli tillarda terminlarning semantik-struktur tahlilini yoritib berish va ko'p komponentli terminlarning tarjima usullarini aniqlash;

qurilish sohasiga oid terminlarning turli qurilish diskurslarida tarjima masalalarini tahlil qilish.

Tadqiqotning obyektini ingliz, rus va o'zbek tillarida qurilish terminlari tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini ingliz, rus va o'zbek tillarida qurilish terminologiyasining lug'atlari, qurilish sohasiga oid reklama matnlari, yo'riq-noma va ko'rsatmalar, ilmiy matnlar tahlili tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Olamning uzluksiz taraqqiyotda ekanligini e'tirof etuvchi dialektik falsafa tadqiqotning metodologik asosini belgilaydi. Mavzuni yoritishda tasniflash, tavsiflash, analitik tasvirlash, mazmuniy tahlil, statistik tahlil, qiyosiy tarjima metodlaridan samarali foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilar bilan belgilanadi:

ingliz, rus va o'zbek tillarida qurilish sohasiga oid ko'p komponentli terminlar (access ladder – лестница-стремянка – tomga chiqish narvoni; isolated footing – столбчатый фундамент – ustunli poydevor kabilar) yasashidagi farq aniqlanib, ularning ingliz tilidan rus va o'zbek tillariga tarjima qilishning transliteratsiya, transkripsiya, kalka hamda izohli tarjima usullari mavjudligi dalillangan;

qurilish sohasiga oid matnlar elektron onlayn dasturlari orqali tarjima qilinganda avtomatik ifoda tufayli matnning ikkinchi bir til tabiatiga mosligi deyarli hisobga olinmasligi va buning natijasida matnlar uslubiy g'aliz, mazmunan noto'g'ri va pragmatik jihatdan maqsaddan uzoq holda shakllanishi isbotlangan;

ingliz, rus va o'zbek tillarida qurilish terminlar (U-shaped precast concrete unit – U-образный сборный железобетонный блок – U shaklidagi yig'ma beton blok kabilar) leksik-semantik jihatidan taqqoslanib, bu kabi til birliklarining o'zaro tarjimasida transformatsiya hodisasi (fire tool – инструмент пожарный; particle board – payraxali plita kabilar) yuz berishi asoslangan;

ingliz, rus va o'zbek tillarida qurilish sohasiga oid 1000 ta termin tematik tasniflangan; 500 ta termin so'z yasalishi bo'yicha leksik-semantik, leksik-grammatik va komponent tahlilga tortilib, ularni struktur-semantik baholash asosida terminlar xususiyatlari ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi:

dissertatsiya tilshunoslik nazariyasi, tilni sistema sifatida o'rganish, leksikologiya, matn diskursi, tarjimashunoslik bilan bog'liq yo'nalishlar rivojida katta nazariy ahamiyatga ega;

dissertatsiyada tadqiq qilingan materiallar qurilish sohasining terminologik lug'atlarini tuzishda hamda terminografiya masalalari tahlilida amaliy ahamiyatga ega;

tadqiqot natijalaridan qurilish sohasida, qurilish sohasi ta'lim yo'nalishlarida (qurilish, arxitektura, imoratsozlik, muhandislik sohalarida) ingliz tilini o'qitishda foydalanish mumkin;

ingliz, rus va o'zbek tillarida "qurilish" sohasiga oid terminlarning lug'ati shakllantirildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlilga tortilgan materiallar o'zbek, ingliz va rus tillari tabiatidan kelib chiqqan holda xulosalar qilish imkonini berganligi, ularning asosiligi, metodologik mukammalligi, shuningdek, qo'yilgan masalalarning aniqligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Terminshunoslik va terminologiya masalalarini ochib berishda amaliy tilshunoslik, madaniyatshunoslik, leksikologiya, matn tilshunosligi, tarjimashunoslik va xorijiy tillarni o'rgatish kabi yo'nalishlarni takomillashtirishda nazariy jihatdan muhim omil bo'ladi.

Tadqiqot amaliy tilshunoslik, leksikologiya, matn tilshunosligi, leksikografiya, tarjimashunoslik bilan bog'liq maxsus kurslar tashkillashda, darslik va qo'llanmalar yaratishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqotning nazariy takliflari, amaliy tavsiyalari va xulosalaridan quyidagi loyiha va ishlarda foydalanilgan:

terminologiya lug'atining alohida tizim sifatida ochib berish masalalari hamda oliy ta'lim yo'nalishlarida, ingliz tili darslarida terminlar masalasi va terminlarni maxsus yo'nalishlarda o'qitish metodlariga bag'ishlangan nazariy materiallardan Britaniya Kengashining EMI (English as a medium of instruction) loyihasida unumli foydalanilgan (Farg'ona davlat universiteti 2023-yil 22-maydagi 01-4109-sonli ma'lumotnomasi). Natijada oily ta'lim o'qituvchilariga terminologiyani o'rgatish masalasida maxsus metod va texnologiyalari ishlab chiqilgan;

tarjima usullarini o'rgatishda, ularni tahlil qilish, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari va tarjimonlarning sohaga oid kompetentligini rivojlantirishning samarador ilmiy-pedagogik asoslari, shakl, vositalarini tadqiq etish masalalari 2021–2022-yillarga mo'ljallangan SUZ80021GR3149 raqamli «Establishment of American drama club at Fergana State University» nomli xalqaro loyihasida qo'llanilgan (Farg'ona davlat universiteti 2023-yil 22-maydagi 01-4107-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ingliz tilining madaniy xususiyatlarini tarjima qilish usullari ishlab chiqildi, loyiha jarayonida namoyish etilgan sahna ko'rinishlarining ssenariylari tarjimasi turli tarjima usullari bilan boyitilgan;

qurilish sohasi terminlari tarjimasi masalasi, terminlarning ingliz tilida qo'llanishi 2021–2022-yillarga mo'ljallangan S-UZ800-20-GR0040 "Access Microscholarship" nomli xalqaro loyihasida belgilangan vazifalariga ko'ra ishlatildi. (Farg'ona davlat universitetida 2023-yil 22-maydagi 01-4109-sonli ma'lumotnomasi). Natijada talabalarda tarjimonlik kompetensiyasini rivojlantirish hamda tarjima mahoratini shakllantirish masalalari tarjima nazariyasi fani bo'yicha metodik ta'minotining boyitilishiga xizmat qilgan;

terminologiya, xususiy terminlardan muloqot jarayonida foydalanish, institutsional muloqotda maxsus leksikaning o'rni, nutq qurishda statistik

ma'lumotlardan foydalanish, tushunchalarni almashtirishdan foydalanish xususiyatlariga doir qarashlarini shakllantirishda Andijon davlat universitetida 2017–2020-yillarda bajarilgan OT-Φ1-18 “Ommaviy lisoniy madaniyatini shakllantirish metodlar va metodologiyasini ishlab chiqish” nomli davlat fundamental-tadqiqot dasturlari doirasidagi loyihada foydalanilgan. (Andijon davlat universiteti 2023-yil 14-sentyabrdagi 38-01-1926-sonli ma'lumotnomasi). Natijada tilning illokusiv aktida qo'llaniluvchi til birliklarining o'ziga xosliklari ochib berilgan, muloqot jarayonida maxsus leksikadan foydalanish o'rni belgilangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy anjumanlarda yoritilgan, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika imliy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilinib, muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 9 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, bundan, 2 tasi respublika hamda 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan tashkil topgan bo'lib, ish 150 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

“Tilshunoslikda “termin” tushunchasi va “terminologiya” sohasi tadqiqi” deb nomlangan birinchi bobda termin tushunchasi tadqiqi, termin o'rganuvchi sohalar tadqiqi, qurilish sohasining bino ta'mirlash yo'nalishi terminlari tadqiqida nazariy masalalar va ularning tarjima jarayonida rus va g'arb tarjimashunoslar tomonidan qo'llangan tarjima usullari atroflicha talqin etildi.

Mazkur bobning birinchi paragrafi **“Termin” tushunchasining ilmiy talqini** deb nomlanib, “termin”ga berilgan turlicha talqinlar muhokama qilindi. Hozirgi vaqtga qadar “termin”ga berilgan ta'riflar bo'yicha qator munozaralar mavjudligi, tilshunos olimlarning bu masalada aniq bir fikrga kela olmaganliklarini bildiradi.

Jumladan, L.S.Barxudarov termin ostida bir ma'lum sohaga taalluqli so'z yoki so'z birikma ifoda etilishini ta'kidlagan¹¹. L.V.Sherba terminlarning struktur va semantik yaxlitlikdan iborat bo'lgan terminlashgan nominativ birlik sifatida

¹¹ Бархударов Л.С. Язык и перевод (Вопросы общей и частной теории перевода). – М.: Междунар. отношения, 1975.

ta'riflagan¹². S.V.Grinyov termini tilning nominativ maxsus leksik birligi sifatida ta'rif-tavsiflaydi¹³.

X.Dadaboyev termin va terminologik leksika tushunchalarni ajratishga tavsiya etgan. Jumladan, "terminologik leksikaning o'z tarkibida tor mutaxassislik doirasidan ommaviy muloqot doirasiga ko'chgan kasbiy bo'lmagan nutqiy kontekstda keng qo'llanadigan so'z va so'z birikmalarni qamrab olishini"¹⁴ ta'kidlagan.

B.N.Golovin va R.Y.Kobrin kabi olimlar: "termin – kasbga oid tushunchani ifodalovchi va shakllantiruvchi hamda ilmiy-kasbiy obyektlar va ular o'rtasidagi munosabatlarni bilish, rivojlantirish jarayonida qo'llaniladigan, maxsus ma'noga ega bo'lgan, so'z yoki tobe ibora", – degan xulosani keltiradilar¹⁵.

Terminning yana bir xususiyatlaridan biri bu uning o'zgaruvchanligidir. Ilmiy paradigmalar o'zgarishi tushunchalarning o'zgarishiga olib keladi, tushunchalarning o'zgarishi yangi terminlar paydo bo'lishini ta'minlaydi¹⁶.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi "**Terminlarni o'rganuvchi sohalar**" deb nomlanib, "terminologiya", "terminshunoslik" va "terminosistema" tushunchalarini farqlash, ularni bir-biridan ajratish masalalariga qaratilgan.

Dunyo tilshunosligida terminshunoslik masalalari o'tgan asrning 70-yillaridan keng o'rganilishi boshlangan. Terminshunoslik maxsus leksikani, shu jumladan termini uning tipologiyasi, kelib chiqishi, shakli, mazmun-mohiyati va vazifasi, ishlatilishi, tartiblanishi va hosil qilinish jihatlarini o'rganuvchi fandır. Shu bilan birga, terminlar xususiyati va vazifasini o'rganadigan sohadir. Hozirgi vaqtga kelib, terminshunoslik qator ilmiy tadqiqot yo'nalishlariga ega. Avvalo, termin tadqiqiga asoslangan amaliy terminshunoslikning rivojlanish va foydalanish qonuniyatlarini o'rganuvchi nazariy terminshunoslikni ajratish mumkin.

Terminologiya – ma'lum bir bilim sohasida, kasbiy tushunchalarni ifodalaydigan yoki maxsus yo'nalishlarda qo'llanadigan terminlarning umumiy yig'indisi¹⁷. Har bir bilim sohasining terminologiyasi ana shu sohaga oid tushunchalar munosabatlari asosida qurilgan bo'lib, ana shu soha tushunchalarini tizimli ravishda so'z yoki so'z birikmasi orqali chegaralaydi va mustahkamlaydi. Terminlar, terminologiyaning tarkibiy qismlari sifatida, ilmiy nazariyalar, qonunlar, qoidalarni shakllantirish vositasidir.

Tilshunoslik fanida terminologiya va terminosistema tushunchalari farqlanadi.

Muayyan fan, texnika yoki faoliyat sohasi terminlari o'zining tizimli xususiyatiga ko'ra bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, tuzilgan tashkilotga birlashadi. Yaqin vaqtlargacha ma'lum bir bilim sohasi atamalarini tizimli tashkil etish "terminologiya" deb atalgan edi.

¹² Щербя Л.В. Языковая система и речевая деятельность. – Л.: Наука, 1974.

¹³ Гринёв С.В. Введение в терминоведение / С.В. Гринев. – М.: Московский лицей, 1993.

¹⁴ Дадабоев Х. Ўзбек терминологияси. – Тошкент, 2019. – Б. 5.

¹⁵ Головин Б.Н., Кобрин Р.Ю. Лингвистические основы учения о терминах: учебное пособие для филолог. спец. вузов. – М.: Высш. шк., 1987. – С.57.

¹⁶ Алексеева Л. Проблемы термина и терминообразования. – Пермь: Перм. гос. ун, 1998. – С. 58.

¹⁷ Мазуренко Б. Основные способы терминообразования в терминологии живописи во французском и русском языках//Материалы девятой международной студенческой научно-практической конференции. – Уральский Государственный университет. – Екатеринбург, 2017. – С. 23–28.

Terminshunoslik o'rganish obyekti terminologiya, ya'ni ma'lum bir bilim sohasi yoki uning bo'lagining tabiiy shakllangan atamalari to'plamidir. Terminologiya tizimlashtiriladi, so'ngra tahlil qilinadi, unda uning kamchiliklari va ularni bartaraf etish usullari aniqlanadi va nihoyat, me'yorlashtiriladi. Ushbu ishning natijasi terminosistema shaklida taqdim etiladi – ular o'rtasida qat'iy munosabatlarga ega bo'lgan terminlarning tartiblangan to'plami bo'lib, bu terminlar nomlagan tushunchalar o'rtasidagi munosabatni aks ettiradi.

Ushbu bobning uchinchi paragrafi **“Qurilish sohasi terminologiyasi va uning lisoniy tadqiqi”** deb nomlanib o'zbek, rus va ingliz tilshunosligida ushbu soha terminlarini tadqiq qilgan tadqiqotchilarning ilmiy ishlariga bag'ishlangan, ushbu ishlarda o'rganilgan masalalarga to'xtalib, mazkur ilmiy ishning farqli tomonlari qiyoslab ko'rsatilgan.

Qurilish amaliyoti va nazariyasida qo'llanadigan terminologiya keng qatlamda ishlatiladi. Mazkur dissertatsiya ishida uy-joy qurilishi, binosozlik va binokorlik xususiyatlari tahlilga tortildi. Qurilish sohasining terminlarini semantik-struktur tahlilida ularning tematik tasniflanishi, lisoniy aspektlarini tadqiq etish, qurilish terminlarining xususiyatlarini to'liq ko'rsatib berishga zamin yaratadi.

So'nggi paytlarda terminlar tarjimai tilshunos va tarjimona diqqat-e'tiborini tortib kelmoqda. Bu, albatta, turli sohalar, ayniqsa, texnik sohalar rivojlanishi bilan bog'liqdir. Qurilish sohasi ham jadal rivojlanib, bu sohaga taalluqli ko'plab so'zlar boshqa tillardan kirib kelmoqda. Qurilish asboblari, texnikaning turi va soni kun sayin ortib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida, qurilish terminologiyaning taraqqiyotiga va dinamik ravishda o'zgarib turishiga olib kelmoqda. O'z navbatida, xalqaro madaniy aloqalar tufayli har bir davlat qurilish sanoatining maxsus leksikasini o'rganishga ham ehtiyoj tug'ildi, uni mahalliy nomlar bilan qiyoslab, yaxlit bir ko'rsatmalar holiga keltirish zamonaviy terminologiya ilmining muhim vazifalaridan biriga aylandi.

Birinchi bobning **“Terminologik birliklar tarjimasining nazariy asoslari”** nomli to'rtinchi paragrafi terminlarning tarjima usullariga bag'ishlangan.

Dastavval, “tarjima” so'zining izohi haqida gap ketganda, M.I.Makovaning quyidagi fikrlarini keltirish mumkin: “Tarjima tillararo va madaniyatlararo muloqot jarayoni bo'lib, boshqa til muhitidagi matn tahlili asosida uning o'rnini bosa oladigan ikkinchi matn yaratishdir”¹⁸, deb ifoda etgan.

L.A.Konyayeva tarjimaga quyidagi izohni bergan: “nutqni yoki matnni boshqa tilda ifodalash; bu jarayonni amalga oshiruvchi harakat; bu harakatning natijasi; bitta tildagi so'zning boshqa tildagi leksik muvofiqligi; tarjima va uning jarayoniga bag'ishlangan akademik fan”¹⁹.

Shotlandiyalik tarjimashunos olim Djon Ketford tarjimini bir tildagi matnning ikkinchi tildagi o'rnini bosa oladigan ekvivalenti²⁰ deb izohlaydi.

¹⁸ Макова М.И. О структурных особенностях специальных словосочетаний в английском языке / М.И. Макова // Вопросы терминологии и лингвистической статистики. – Воронеж: ВГУ, 1972. – С. 88.

¹⁹ Коняева Л.А. О некоторых трудностях научно-технического перевода. // Перевод и сопоставительная лингвистика. Выпуск № 1, 2015. – С. 50–54. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-nekotoryh-trudnostyah-nauchno-tehnicheskogo-perevoda>

²⁰ Кетфорд Дж.К. Лингвистическая теория перевода: Об одном аспекте приклад. лингвистики / Дж. К. Катфорд; пер. с англ. В.Д. Мазо. – Москва: Едиториал УРСС, 2004.

V.N.Komissarov tarjimaga tillararo muloqotda matnning asliga muvofiq ekvivalentini aniqlash deb izohini bermoqda²¹. Demak, tarjima jarayonida tarjima qilinayotgan tilda muvofiq ekvivalent topish, ushbu ekvivalentni matnda tushunarli tarzda ifodalash kabi masalalar muhim hamda bu hodisa tarjimondan o'ziga xos mahorat, tajriba talab qiladi.

Qurilish terminlarining tahlilida biz texnik va qurilish mahsulotlarining reklamalari, qo'llash bo'yicha yo'riqnomalar, qurilish sohasiga taalluqli ilmiy maqolalar, lug'at va glossariylarda keltirilgan terminlarni tahlilga tortdik. Terminlar tarjimasi umumiste'moldagi so'zlarning tarjimasidan keskin farqlanadi. Shuning uchun terminlar tarjimasi masalasi chog'ishtirma tilshunoslikda asosiy o'rin egallaydi. Tarjimaning vazifasi original va tarjima matnlarning umumiyligini ta'minlash uchun ekvivalentlik masalasiga e'tibor berish bo'lsa-da, terminlar tarjimasida maxsus texnik matnning ma'lumot mazmunini ta'minlashdir²².

Terminlar tarjimasi masalasida E.F.Skoroxodko, V.N.Komissarov, A.L.Burak, J.P.Vine, J.Darbelne tarjimaning ikkita turini ajratadilar: to'g'ridan to'g'ri tarjima, ya'ni bevosita va vositali tarjima. To'g'ridan to'g'ri tarjima usullariga so'z yoki termin o'zlashtirish, kalkalash hamda so'zma-so'z tarjimalari kiritiladi. Vositali tarjima usullariga transpozitsiya, modulyatsiya, ekvivalensiya va adaptatsiya kabilar kiritiladi. Albatta, to'g'ridan to'g'ri tarjima usullaridan foydalanish imkoniyati bo'lmasa-da, vositali tarjima usullaridan foydalaniladi.

G'arb tarjimashunoslari Vinter-Fryomel va Fisher tarjimaning quyidagi usullarini ajratadilar: leksik birlikni tarjima qilinayotgan tilga moslashtirish; leksik birlikning ma'nosini saqlagan holda o'zlashtirish; leksik birlikning ma'nosini saqlab, lekin uning fonema va grammemalarini, urg'usini almashtirgan holda o'zlashtirish; kalkalash – semantik yoki so'z yasaliş analogi; leksik birlikning ma'nosini o'zgartirilgan holda o'zlashtirish; so'z yasalişiga asosan o'zlashtirish²³.

Rus va g'arb olimlari tomonidan ifoda etilgan tarjima usullari mazkur ilmiy ishda ko'rib chiqildi, lug'at shakllanishida hamda matndagi terminlar tarjimasi jarayonida muvofiq tarjima usullari taklif etildi. Buning natijalari esa ilmiy ishning boblarida atroflicha tahlil etildi.

“Qurilish terminologiyasining struktur-semantik tuzilishi va ularning tarjima masalalari” deb nomlangan ikkinchi bobda qurilish sohasi terminlari strukturasi va komponentlari tahlili, terminlar sinonimiya, polisemiya va terminlarning metaforizatsiyasi hamda ularning tarjima masalasi tadqiq qilindi.

“Qurilish sohasi terminlari struktural tahlili” nomli birinchi paragrafda tarjima jarayonida murakkab strukturali terminlar alohida qiyinchilik tug'dirishi, ular tarkibiy qismlar o'rtasida ma'lum aloqadorlik bo'lib, tarkibiy va semantik

²¹ Комиссаров В.Н. Слово о переводе. – М.: Международные отношения, 1973.

²² Базалина Е.И. К проблеме перевода терминов научно-технических текстов / Е.Н. Базалина // Вестник Майкопского гос. технолог. ун-та, 2009. – № 1. – С. 102–107. – (Сер. «Языкознание»).

²³ Gravem O. Terminology in Development: a Case Study of Translation from English into Russian in the Field of Subsea Technology. – University of Bergen. 2015. – P. 35–37; bu haqda qarang: Winter-Froemel, Esme. Unpleasant, Unnecessary, Unintelligible. Cognitive and Communicative Criteria for evaluating Borrowings and Alternative Strategies. In Anglicisms in Europe: linguistic diversity in a global context. – Cambridge Scholars Publishing, 2008; Fischer, Roswitha. Introduction: Studying Anglicisms. In Anglicisms in Europe: linguistic diversity in a global context, eds. – Cambridge, 2008.

jihtadan murakkab kompleksni tashkil etishini ta’riflaydi. Adekvat tarjimaga erishish uchun esa termin strukturasi va mazmunini tushunish kerak bo’ladi. Shuning uchun, terminlar tarjimasida ularning strukturasi ham e’tiborga olinishi talab etiladi.

Termin strukturasi asosiy soʻzlar va qoʻshimchalar oʻrtasidagi munosabat, oʻzaro bogʻliqlikni hisobga olish ularni boshqa til vositasida muqobilini yoki ekvivalentini topish imkonini beradi. Ayniqsa, bu masala yechimi turli tipologik tuzilishga ega boʻlgan ingliz tilidan rus tiliga tarjima qilishda muhimdir. Oʻzbek tilida esa soʻz birikmalar yasashda ingliz tili bilan moslik kuzatiladi. Terminlarni strukturasi koʻra tasniflash glossariylar shakllantirishda hamda terminlarni tizimli tahlil qilishda yordam beradi.

Qurilish terminologiyasining tadqiqida bugungi kun texnika sohasining jadal rivojini, shu tufayli terminologiya sohasining keskin oʻzgarishi, yangi terminlar qurilish sohasiga kirishini inobatga olib, biz ham mazkur sohaning tadqiqida oʻz tasnifimizni taklif qilmoqdamiz.

1. Termin-soʻzlar: a) sodda terminlar: *strand, hose, pipe, brick, main* – шланг, магистраль, труба, кирпич – shlang, truba, gʻisht; b) yasama terminlar: *impervious, collector, generator, генератор, коллектор, duradgor, quruvchi, paxsachi*; c) murakkab terminlar: *groundwater, pipework, belkurak, tomyogʻoch, loydevor*; d) abbreviaturalar: *electromotive force (EMF), direct current (DC), alternating current (AC); WC; древесностружечная плита (ДСП); древесноволокнистая плита (ДВП)*.

2. Termin-soʻz birikmalar: a) ikki komponentli: *electromotive force, series circuit; steel rebar* – стальная арматура; *wall panels* – панельная обшивка – *panelli devor*; b) uch komponentli: *heat conductivity coefficient, electrical system arrangement; water-cement ratio, suv-sement nisbati*; c) toʻrt komponentli: *oil-fired central heating station; year-round air conditioning, steel-fiber reinforced concrete* – железобетон, армированный стальной фиброй – *pòlat tolali temir-beton*; d) besh va undan yuqori komponentli boʻlgan terminlar: *embedded electric panel system of heating; stone-setter’s adjustable multiple-point suspension scaffold* – регулируемые многоточечные подвесные леса каменотеса – *tosh oʻrnatuvchining koʻp nuqtali osma-sozlanishli havozasi*.

3. Ramziy terminlar. Odatda bunday terminlar kimyo va fizika fanlaridan kelib, ushbu fanlar tushunchalarini ramzlar orqali ifodalab beradi, ushbu terminlar qurilish sohasida qoʻllanishi ham mumkin: *Hz* – gerts; *T* – harorat.

4. Termin-metaforalar: *tongues* – язычки – *tishchalar*.

Uchta turli tizimli tillarda qurilish sohasiga oid terminlarni tahlil qilar ekanmiz, biz bunda har qaysi uch tildagi terminlar turining farqini koʻrsatishga harakat qildik.

1-jadval

Tillar	Umumiy son	Termin-soʻzlar	Termin-birikmalar
Ingliz tili	500	266	234
Rus tili	500	127	373
Oʻzbek tili	500	185	315

Shuningdek, termin shakllanishida ingliz, rus va o‘zbek tillarning so‘z yasaliş tizimiga e‘tibor qaratildi. Jumladan, konversiya, kompozitsiya, so‘z qisqartirish usullari, affiksatsiya kabi shakllangan terminlar ko‘rib chiqildi va ularning nisbati har qaysi tilda qiyoslandi.

2-jadval

Tillar	Konver-siya	Kompo-zitsiya	Qisqartirish			Affiksa-tsiya
			Abbrevia-tura	Bo‘g‘in qirqish (clipping)	Aralashma so‘zlar (blending)	
Ingliz tili	20 %	25%	10%	5%	5%	35%
Rus tili	–	30%	17%	3%	5%	45%
O‘zbek tili	–	42%	5%	–	3%	50%

Ikkinchi bobning **“Qurilish sohasi terminlari komponentlarining xususiyatlari va ularning tarjima masalalari”** nomli ikkinchi paragrafida qurilish terminlari komponentlari tadqiq etildi.

Hozirgi davr terminologiya sohasida terminlarning ko‘p komponentligi inobatga olinishi hamda ularning alohida terminlar sifatida tahlil qilinishi dalillagan. Qurilish terminlarning bir qator lug‘atlarini qarab chiqib, amin bo‘ldikki, 2000-yillardan so‘ng lug‘atlarda ko‘p komponentli terminlar soni keskin oshib bormoqda. Bu, albatta, qurilish sohasining rivojlanganini, ushbu sohaga taalluqli yangi tushunchalar paydo bo‘lganligi hamda bitta so‘z-termin orqali ushbu tushunchalarni ifodalashda qiyinchilik va tushunmovchiliklarga olib kelishiga asosan termin-birikmalar soni oshib borganligini e‘tirof qilish mumkin. Ya’ni ko‘p komponentli terminlar soni ko‘paygan. Ayniqsa, ingliz tilidan rus tiliga tarjima qilinganda, ko‘p terminlar o‘z ifodasini rus tilida bitta termin orqali topa olmadi. Shuning uchun, terminning to‘liq mohiyatini ko‘rsatish uchun termin komponentlari oshib borishni boshladi. Shu tufayli, o‘tgan asr tadqiqotchi va olimlarning termin qisqaligi izohi hozirgi zamon tilshunosligiga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi.

Rus va ingliz tilidagi ko‘p komponentli terminlar tarjimasida bir qator qiyinchiliklar L.S.Vasilyeva, A.V.Gavrilova tomonidan ko‘rsatilgan. Ushbu tadqiqotchilar ko‘p komponentli terminlarni regressiv va progressiv turlariga ajratib chiqqan. Regressiv turdagi ko‘p komponentli terminlarda yadroli so‘z ot so‘z turkumida bo‘lib, oxirgi komponent orqali ifodalanadi. Bunday terminlarni oxirgi komponentidan boshlab tarjima qilish kerak. Progressiv turdagi terminlarda ot so‘z birikmadagi bosh komponent ot so‘z turkumida bo‘lib, predlog yordamida ifodalanadi. Ingliz tilining ushbu sintaktik qoidalariga, asosan rus va o‘zbek tillariga ko‘p komponentli terminlarni tarjima qilish tavsiya beriladi. Rus va o‘zbek tillarida sintaktik qoidalar farqlanadi. Shuning uchun biz tarjimada turli usullarga e‘tibor qaratib, ko‘p komponentli terminlar tarjimasida bir qator tarjima usullarini ko‘rib chiqdik. Jumladan:

1. Kalka usuli orqali tarjima qilish: hydration of concrete – *увлажнение бетона* – *beton namlanishi*, water-cement ration – *соотношение цемента и*

воды – suv va sement nisbati; *weir* – водослив – suv oqish havzasi. Kalkalash doimo ham terminlarning bir xil komponentligini saqlab qola olmaydi, ayniqsa o‘zbek tilida. Shuning uchun, o‘zbek tilida terminlarning aniq ifodasini ko‘rsatish uchun kalka usuli bilan birga turli so‘zlar yoki predloglarni qo‘shib olish usulidan foydalandik, shu orqali tarjima uyg‘unlashib bormoqda.

2. Grammatik transformatsiya yoki inversiya tarjima usuli:

Tarjimaning keying usuli – grammatik transformatsiya. Bunda komponentlar almashinuvi yoki inversiya holati ko‘p uchrashi kuzatiladi: *system of water quality monitoring* – система контроля качества воды – suv sifatini tekshirish tizimi.

3. So‘z turkumlarining almashinuvi, masalan, o‘ning o‘rniga sifat qo‘llash: *water economy budget* – водохозяйственная система – suv xo‘jaligi tizimi. Bunda rus tilida ot sifat bilan almashtirildi, lekin o‘zbek tilida substantivizatsiya qo‘llanmoqda.

4. Turli predlog yoki so‘zlarni qo‘shish: *ceramic flooring tile* – кафель для пола – pol uchun kafel.

5. Qaratkich kelishigining qo‘llanishi: *chimney pot* – дымовой горшок – mo‘ri qopqog‘i, *downfeed water piping system* – pastga tushirish suv quvurlari tizimi – система трубопроводов нисходящей воды.

Grammatik transformatsiyalar bilan birga tarjimada leksik transformatsiyalar ham mavjud:

1. Konkretlashtirish, ya’ni aniqlashtirish: *water and waste water facilities* – сооружения водоснабжения и канализации – suv va chiqindilar ta’minoti inshootlari.

2. So‘z tushirib qo‘yish: *air-placed concrete* – газобетон – havo o‘tkazadigan beton; *heat losses through enclosures* – трансмиссионные теплопотери – issiqlik yo‘qotilish.

3. So‘z qo‘shish: *turn-key type building* – сдача готового здания – binoni tayyor holda topshirish; *concealed heating* – система отопления со встроенными отопительными приборами – devor ichiga o‘rnatilgan isitish manbai.

Ko‘rinib turibdiki, tarjima jarayonida biz ma’lum bir tarjima usulidan foydalanmadik. Tarjima jarayonida termin tarkibidagi asosiy yadro so‘ziga e’tibor qaratilib, har qaysi tilning sintaktik qoidalariga asosan birikmali termini shakllantirdik.

Mazkur bobning “**Qurilish terminlarining leksik-semantik tavsifi**” deb nomlangan paragrafida terminlar sinonimiya, polisemiya va omonimiya holatlari, terminlarning metaforik tarzda qo‘llanish masalalari tahlilga tortildi.

Qurilish sohasining lug‘atlarida terminlarning sinonimik holatlarini ko‘p kuzatish mumkin. Chunki terminlar rivojlanib, terminning bitta ta’rifiga ikkinchi ta’rifi ham qo‘shilishi mumkin. Ushbu masalaga ilmiy jihatdan yondashib, terminlar sinonimlarini vujudga kelishining bir necha omillarini tushuntirishga harakat qilamiz: terminlarning mazmuniy tizimi kengayganda terminlar sinonimi vujudga keladi; tilda mavjud bo‘lgan turli so‘z yasalish usullari orqali; o‘zlashtirish orqali terminlar sinonimlari soni ko‘payishi kuzatiladi. Bunda terminlar tarjima orqali boshqa tilga kiritiladi va ushbu tilning maxsus xususiyatlariga ega bo‘ladi;

ayrim holatda tarjima orqali terminlar xususiyati aniq ifodalanmaydi, bunda terminlar tarjimasiz boshqa tilga kiritiladi; tilning turli uslubiy jihatlari; tushunchalarning umumiy jihatdan bir xilligi; tilning fonetik-morfologik tizimining turlichaligi.

Oddiy terminlar sinonimiyasi: *cable (wire) – провод, кабель – sim, kabel; pump – насос, помпа – насос, pompa. shingle – черепица – cherepitsa / tomga yopiladigan sopol; sill – подоконник – deraza rafi, derazaning tirgak qismi, tokcha; scaffold – строительные леса – havoza, kunda; interior – интерьер – interyer / binoning ichki qismi; exterior – экстерьер – eksteryer / binoning tashqi qismi.* Ingliz tilidagi ayrim sodda terminlar o‘zbek tiliga tarjima jarayonida so‘z birikmali, ya’ni ko‘pkomponentli terminlarga aylangan, o‘zbek tilida sof terminlarni saqlash uchun izohli tarjima usuli orqali termin sinonimini taklif qilmoqdamiz.

Ko‘p komponentli terminlarda sinonimik holati so‘z yasashning turli usullari orqali yuzaga keladi: *particle board – древесностружечная плита (ДСП) – paraxali plita.*

Termin ma’nosi o‘xshashligi bo‘yicha:

circuit-breaker (on-off switch) – выключатель. Lekin o‘zbek tilida termin ma’nosi o‘xshashligi bo‘yicha ushbu terminga muvofiq tarjima taklif qila olmadik. Rus-o‘zbek tillari umumiste’mol leksikasi lug‘atida *выключатель* so‘ziga o‘zbek tilida uchta analog berilmoqda: *almashtirish; o‘chirg‘ich; tumbler tugmasi.* Biz umumsite’mol leksika lug‘atida taklif etilgan tarjimalaridan voz kechib, o‘zimizning variantimizni beramiz: *faza kaliti; elektr o‘chirg‘ich tugmasi; tok almashtirish tugmasi;*

load bearing wall – несущая стена – yuk ko‘taruvchi devor/asosiy devor.

a charge carrier – носитель заряда, носитель тока – tok tashuvchisi;

Terminlarning semantik strukturasi kengayishi: *protective isolant – изоляция нетоковедущих частей / защитная изоляция – tok o‘tkazmaydigan simlarning izolyatsiyasi.*

Terminlar sinonimiyasining tadqiqida turli sohalarga taalluqli termin-sinonimlar mavjudligi ham e’tiborga olinishi, tarjimada esa muvofiq ma’nosini berishi aniq va to‘g‘ri tarjimaga olib keladi.

Polisemiyaning vujudga kelishi tadqiqotchi va olimlar tomonidan turlicha izohlangan. B.N.Golovin va R.Y.Kobrin tilda polisemiyaning metonimiya va mualliflik okkazional so‘zlar orqali vujudga kelishini ta’kidlaydi.

O‘zbek tilida terminlar polisemiya ko‘p uchraladigan holatdir. Masalan, *xona* so‘zi bilan kompozitsiya usuli yordamida shakllangan so‘z-terminlar polisemiya ko‘zga tashlanadi: *yotoqxona – 1. Uxlash uchun xona; 2. Talaba va ishchilar turar joyi. Mehmonxona – 1. Uyning mehmon qabul qiladigan qismi, xonasi; 2. Boshqa joydan keluvchi insonlar uchun maxsus qurilgan bino. Oshxona – 1. Uyning ovqat pishiradigan qismi, xonasi; 2. Odamlar ovqatlanadigan maxsus qurilgan bino.* Ushbu so‘zlarning rus va ingliz tillariga tarjimasida polisemiya kuzatilmaydi. Tarjimada ma’lum bir ma’noni tanlash kontekstga bog‘liq masaladir.

Demak, terminlarning polisemiya har qaysi tilda bir xil emas, terminlar ko‘p ma’noliligi har bir tilning ichki semantik tizimiga bog‘likligi bilan ajralib turadi.

Terminlar tadqiqida yana bitta muammoli masala – bu terminlar omonimiyasi. Polisemiya va omonimiyani ajratishda turli qiyinchiliklar ham mavjud bo‘lishi mumkin. Umumiste’mol so‘zlar va terminlar omonimiyasi muammolari bir hil yoki turli muammolari bo‘lishi mumkinmi, degan savol ham paydo bo‘lishi mumkin. Terminlar omonimlarining vujudga kelishini S.V.Grinyov-Grinevich terminlarning semantikasini yoyilib ketishiga bog‘liqligini ko‘rsatadi²⁴. D.S.Lotte terminlarning omonimiyasining vujudga kelishini quyidagi omillarga asosan tushuntiradi: olinma so‘zlar, abbreviatura, terminlar ko‘pma’nomliligini²⁵.

Lug‘at tarkibidagi terminlarning munosabatlarini ko‘rar ekanmiz, gipero-giponimik (tur – jins) aloqalari ham diqqatga sazovordir. Terminlararo tur-jins munosabatlarini kvazisinonim sifatida izohlab, quyidagi misollar orqali taqdim etamiz: *frame* – *каркас* – *ustun* terminning hozirgi davr qurilish sohasida turlari ham ko‘payib bormoqda, jumladan: *timber frame*, *steel frame*, *concrete frame*, *heavy frame construction*, *light frame construction*. Rus va o‘zbek tillariga tarjimasida komponentlar soni bir xil bo‘lib kelmoqda: *yog‘och ustun*, *beton ustun*, *yengil ustunli qurilma*, *деревянный каркас*, *стальной каркас*, *бетонный каркас*, *тяжёлая каркасная конструкция*, *лёгкая каркасная конструкция*.

Terminlar tadqiqida I.Vereshagina terminlarni ikki qatlamga ajratadi: sof terminlar va ma’no ko‘chishi orqali vujudga kelgan terminlar. Ma’no ko‘chishi orqali paydo bo‘lgan terminlarga metaforik va metonimik tarzda yasalgan terminlar kiradi²⁶. Rus tilida bunday terminlar rus madaniyatini, rus millatining o‘ziga xos xususiyatlari, hattoki qurilish sohasida aynan rus millatiga xos tushunchalarni ifodalaydi. Jumladan, *чело* – uyning old qismi, *серьга*, *лемех*, *дынька*, *полотенце*, *кокошник* – uyning ichki qismlari, *конёк* – to‘nning cho‘qqisi, *сердечко* – qulfnig kalit uchun bo‘lgan qismi; *язычки (расположенные в частом мерном ритме узкие ступенчатые кронштейны (обычно кирпичные), поддерживающие карниз)* – “*tongues*” (*narrow, stepped, located in a frequent, measured rhythm brackets (usually brick) supporting the cornice*) – *tishchalar* (*karnizni qo‘llab-quvvatlaydigan, tez-tez o‘lchanadigan ritmda joylashgan tor pog‘onali qavslar (odatda g‘ishtli)*). Biz o‘zbek tilida ushbu terminning muvofiq ekvivalentini izlab, rus va ingliz tillarida berilganday *tilchalar* emas, balki *tishchalar* so‘zini taklif qilamiz. Lekin qurilish sohasida o‘zbek tilida nemis tilidan kirib kelgan *kronshteyn* so‘zi qo‘llanadi. Biz mazkur terminga o‘zimizning variantimizni o‘zbek tilida taklif qilib, terminlar qo‘llanishida o‘zbek tili sohiblari uchun oson talaffuz qilinadigan muqobil variantlaridan foydalanganimiz ma’qulroq deb hisoblaymiz. Chunki quruvchilar hamda qurilish materiallaridan foydalanuvchilar terminlar qo‘llashda rus va ingliz tilidan kirib kelgan terminlarni o‘zbek tili talaffuzidan kelib chiqib yondashganda ko‘p slenglar vujudga kelgan. Masalan: rus tilidan kelgan qurilishda qo‘llanadigan so‘z

